

SOVET DAVRINI O'QITISHNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

Hojiakbar Komilov Umidjon o'g'li
(hkomilov0326@gmail.com)

FarDU, tarix fakulteti, tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola yurtimiz tarixining bir bo'lagi bo'lgan Sovet davrining bugungi davrda o'qitishning ahamiyati, ushbu davrning yutuq va kamchiliklari haqida shuningdek ushbu davrni bugungi kunda Sovet davrining o'qitilishi borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Sovet davri, O'zbekiston, mustaqillik, tarix, taraqqiyot, davrlashtirish, ta'lim.

Абстрактный. В данной научной статье рассматривается значение преподавания советской эпохи, являющейся частью истории нашей страны, в настоящее время, достижения и недостатки этого периода, а также преподавание советской эпохи в этот период сегодня.

Ключевые слова. Советская эпоха, Узбекистан, независимость, история, развитие, периодизация, образование.

Abstract. This scientific article discusses the importance of teaching the Soviet era, which is a part of the history of our country, in the present day, the achievements and shortcomings of this period, as well as the teaching of the Soviet era in this period today.

Keywords. Soviet era, Uzbekistan, independence, history, development, periodization, education.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan keyingi o'tgan 34 yil davomida davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Shuningdek, ta'lim sohasida ham bir qator yangilanishlar amalga oshirilib, barkamol avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan islohotlar rivojlantirilib borilmoqda. Hozirgi globallashuv jarayonida jahonda yuz berayotgan voqea va hodisalar, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning mazmun-mohiyatini tahlil etish, turli xil yot g'oyalardan yoshlarni himoya qilish uchun tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi davri tarixini chuqur o'rganish yosh mutaxassislarning bugungi davr siyosatini, jahon hamjamiyatidagi o'rnini, davr qahramonlarini, ayniqsa bugungi yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida o'zining ham shu jarayondagi faol ishtirokchi ekanligini to'g'ri va to'liq anglashi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillari mamlakatimiz ta'lim sohasida yuz bergan o'zgarishlar tufayli mamlakatimizda kadrlar tayyorlash sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarildi. Ayniqsa «Yangilanayotgan O'zbekiston – yangicha dunyoqarash» g'oyasi ostida bugungi kunda kechayotgan o'zgarishlar ta'lim tizimini ham chetlab o'tayotgani yo'q. O'zbekistonda Oliy ta'limni rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan konsepsiyasining qabul qilinishi, qo'shma dasturlar orqali nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan o'zaro hamkorliklarning yo'lga qo'yilishi, O'zbekistonda dunyoning etakchi oliy o'quv yurtlarining filiallarining ochilishi, xalqaro reyting va indekslarda respublika oliy ta'lim tizimining nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar buning misolidir.

Malakali kadrlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib, bugungi kunda ta'lim to'g'risidagi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Unda mamlakatimizda mustaqillik yillari ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohatlar va undagi ayrim kamchilik va nuqsonlarni tanqidiy tahlil etilgan holda bu tizimda o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Oily o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Fanlarni optimallashtirish yo'lidan borilmoqda.

O'zbekiston tarixi ko'hna bo'lib, olamshumul voqeliklarga juda boy. Mamlakatimiz jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanib, O'zbekiston tarixi qadim va yaqin ajdodlarimizning hayotiy kechmishlari qanday bo'lganligi, jahon tarixi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini holisona va haqqoniy o'rganadi. Umuman, O'zbekiston tarixi fani ajdodlarimiz hayotida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni tahlil qilishni, ularning sabablari va mohiyatini, ichki va tashqi omillarini, umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishni ko'zda tutadi. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi o'ta muhim masala bo'lib, u fanning tub ilmiy-nazariy asoslarini tashkil etadi. Ma'lumki O'zbekiston tarixi sovet davrida eng qadimgi davrdan boshlab 5 ta taraqqiyot bosqichiga: ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalistik, sotsialistik (kommunistik) jamiyatlarga bo'lingandi. Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar «Yangi tarix» ta'limoti va tarix fanini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslariga suyangan holda shonli boy tariximizni ilmiy asosda davrlashtirish sohasida ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritdilar va tarixni sinflar kurashidan iborat, deb tushunish, uni 5 ta formatsiyaga bo'lishdan batamom voz kechdilar. O'zbekiston tarixiga oid dastur, darslik, va o'quv qo'llanmalari sovet tuzumi davrining soxta, to'qima materiallaridan butunlay holi qilindi.

1917—1990-yillarda ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarida kommunistik mafkura ta'lim-tarbiyaning asosi qilib qo'yilishiga qaramay, xalqimizning tafakkuri, ma'naviy darajasi, pedagogik ongi rivojlanib bordi. Sho'ro siyosatida asosiy e'tibor xalqda o'z tarixi, milliy madaniyati, milliy qadriyatlaridan, ayniqsa yoshlar qalbini milliy g'urur, milliy iftixor, o'z ajdodlari bilan faxrlanish tuyg'usidan mahrum qilishga qaratildi;

ta'lim-tarbiyada o'quvchilarda kommunistik axloqni tarkib toptirish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Sovet davrida O'zbekistonda ta'lim holati bo'yicha yozilgan adabiyotlarda mahalliy aholi "savodsiz" hisoblanib, kamsitilgan, yurtimizda ta'limning ming yillardan ziyod vaqt mobaynida mukammal shakllangani va o'zining betakror an'alariga ega bo'lgan tizimi e'tibordan chetda qolgan. Sovet mualliflarining asarlarida hukumatning salbiy siyosatlarini berkitish maqsadida o'ziga xos bo'lgan ta'limdagi voqealarni buzib ko'rsatish hollari kuzatiladi. Vatanimiz tarixining barcha bosqichlarini ilmiy asosda xolisona o'rganish va unga obyektiv baho berish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu boradagi ishlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratini, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu- ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq", degan ko'rsatmasi asos vazifasini bajarmoqda. O'tmish tarixiga nazar tashlash shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston xalq maorifi tadqiq etilayotgan davrga qadar taraqqiyotning uzoq yo'lini bosib o'tgan. Uning ildizlari qadim o'tmishga borib taqaladi. Xalqimiz azaldan yuksak ma'naviyati, ma'rifati va ilmga chanqoqligi bilan ajralib turgan. To'plangan ma'lumotlar shundan dalolat berdiki, Turkiston milliy aholisining asosiy qismisovet hokimiyati boshlagan ishlarni qo'llamadi, sababi bu ishlar avval boshidan milliy o'zlikni bo'g'ish, buyruqbozlik hokimiyatini o'rnatish, ilgari chor Rossiyasi va "milliy o'lkalar" o'rtasidagi munosabatlar notengligini davom ettirish, yoppasiga ruslashtirish kabi harakatlarga yo'naltirilgan edi.

Sovet sotsiolistik tuzum o'rnatilishi bilan yosh avlodni fan asoslari politexnika bilimlari bilan qurollantirish, o'quvchilarni internatsionalizm ruhida, Sovet davlatiga va kommunistik g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib, buni maktablar, bog'chalar ochish orqali amalga oshirish edi. Sovet mustamlakachilari diniy maktablar va jadid maktablari haqida mahalliy millat bolalari va yoshlarini haqiqiy madaniyatining keng, yorug' yo'ldan chetga tortadigan, ularni diniy xurofotlar bilan zaharlaydigan va quruq qiroatxonlikka o'rgatadi degan noto'g'ri va yolg'on vajlarni keltirib o'zbek xalqining ming yillardan beri shakllanib kelayotgan milliy madaniyatini yo'q qilishga urinardi. Maktablarda siyosiy tarbiyani yo'lga qo'yishga va uni takomillashtirib borishga e'tibor berdi. Buning uchun uzoq tarixga ega bo'lgan eski milliy ta'lim-tarbiya tizimini tag-tomiri bilan yo'q qilish talab qilinardi. Sotsializm davri maktablarda o'quv-tarbiya ishlari mazmuni tuzumning maqsadi asosida o'zgardi. Din ta'qiqlandi, tarix darslarida voqealar buzib talqin etildi. Adabiyot darslarida esa ko'proq rus yozuvchilarining asarlari bilan tanishtirishga ahamiyat berildi. Matematika, fizika, ximiya fanlarini o'qitiish amaliyot biln

bog'lashga e'tibor qaratildi. Siyosiy iqtisod, revolyutsion harakat va sotsializm tarixini o'rganishga keng yo'l ochildi.

Mustaqillikdan keyingi yillarda chop etilgan O'zbekiston SSR tarixi haqidagi ko'pgina mualliflarning monografiyalari, maqolalari va ilmiy izlanishlaridan, jadid matbuotlarida nashr etilgan sovet maktablari haqdagi maqolalardan shuni anglash mumkinki, o'sha davrlarda darsliklar bilan ta'minlanish ishi juda yomon ahvolda ekanligi, yangi darsliklar sho'rolar mafkurasiga moslanganligi, yoshlarni sotsiolistik ruhda tarbiyalash, ularni bilimli emas, balki ko'proq mehnatkash ishchi kuchi qilib tayyorlash maqsadidaligi yaqqol ko'za tashlangan.

1-bosqich boshlang'ich maktablari uchun yaratilgan darsliklar metodik jihatdan juda ko'p nuqsonlarga ega edi.

2-bosqich maktablar uchun esa darsliklar umuman yo'q edi. "Ayrim darsliklarda ideologik jihatdan zararli materiallar kiritilgan, unda panislomizm hamda panturkizm g'oyalari targ'ib qilingan, revolyutsiyadan oldingi ijtimoiy munosabatlar buzib ko'rsatilgan, O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishini qoralovchi uydirma gaplar qo'shilgan deb darsliklarni qayta ko'rib chiqish va yangi darsliklar yaratish va uni nashr ettirish xalq maorifining eng dolzarb vazifasi qilib qo'yildi". Maktab darsliklarini puxta qarab chiqish va vaqtinchalik bir chora sifatida rus tilida tabiiy fanlar bo'yicha avval tuzilgan eng yaxshi darsliklarni o'zbek tiliga tarjima qilish zarurati tug'ildi. Maktablar uchun darsliklar tayyorlash hamda chop etish ishiga rahbarlik qilish maqsadida maxsus o'quv-nashryot komissiyalari tuzildi, ular faoliyati Xalq maorifi komissarligi tomonidan muvofiqlashtirib turildi. Hukumat maktablar tarmog'ini tiklash hamda kengaytirish uchun mablag'lar izlab topar edi. Maktab ahvolini yaxshilash, o'quvchilarning ovqatlanishini uyushtirishga qaratilgan tadbirlarda yer uchastkalarini ajratish, boylarning uy-hovlilarini rekvizitsiya (molmulkning qiymatini to'lash sharti bilan, majburiy ravishda davlat ixtiyoriga olish, aslida mol-mulk qiymatlari to'lanmagan holatlari ko'p uchragan) qilish, sanoat korxonalarining maktablarga otaliq yordamini tashkil etish va hokazolar edi. Maorif xalq komissarligi uchun kadrlar masalasi maktab qurilishidagi bosh muammo edi. Yangi tuzum pedagoglarini tayyorlash, ayniqsa, birinchi navbatda mahalliy maktablar o'qituvchilarini tayyorlash uchun har tomonlama chora-tadbirlar belgilandi. Binobarin, o'qituvchilar tayyorlash butunlay yangicha negizda-qisqa muddatli kurslar orqali yo'lga qo'yildi. Qisqa muddatli kurslar tizimi, eng avvalo bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy ongni shakllantirishga va faqat yangi rejimning mafkuraviy yo'l-yo'riqlarini o'zlashtirishga qaratilgan edi. Kurslarning dasturlari, xususan, sotsializm va inqilobiy harakat tarixini, siyosiy iqtisod hamda milliylashtirish va ijtimoiylashtirish g'oyalarini, bolshevistik partiyaning dasturlari hamda taktikasini o'rgatishni o'z ichiga olgan edi.

Xulosa qilib aytganda, sovet davri O'zbekiston tarixi iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Paxta sanoati mamlakatning iqtisodiy

rivojlanishida muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, bitta mahsulotga tayanish ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Siyosiy jihatdan, markazlashgan boshqaruv tizimi mahalliy madaniyatni chekladi, ammo mustaqillikka intilish harakatlari xalqning milliy identitetini saqlashga yordam berdi. Madaniyat sohasida yangi yo'nalishlar paydo bo'ldi, lekin ijodiy erkinlik cheklangan edi. Sovet davrining o'zgarishlari bugungi O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot O'zbekiston tarixini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va kelajakdagi rivojlanishga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
2. Rasulov. R. (2019). Sovet Ittifoqi davridagi O'zbekiston: Iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar. Toshkent: Fan va texnologiyalar.
3. Turaev. M. (2020). Sovet davrida O'zbek adabiyoti va san'ati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 8(3), 33-42.
4. Ўзбекистон тарихи. Р.Х.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. – Тошкент, 2005.
5. Тошев, С. (2020). Ўзбекистоннинг совет мустамлакачилиги даври тарихини ўрганишда турк тилидаги манбаларни ўрни. InТарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари (pp. 121-127).
6. Ўзбекистон халқининг дини, маданияти ва урф-одатлари: тарих ва ҳозирги 266 ҳолат. - Тошкент: ТИУ, 2011.
7. N.Rahmonov. A.Umaraliyev Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixi ocherklari., Toshkent., "O'qituvchi",1984.,-B.204.
8. O'zbekiston tarixi 1917-1991-yillar.1-kitob. 1917-1939-yillar, O'zbekiston nashryoti, T.2019, 341 bet)
9. E.Q.Qodirov O'zbekiston umumta'lim maktablarining rivojlanish tarixi (1917-1975). O'qituvchi., Toshkent.,1979.,-B.348